

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDUQAHHOROVA SHAHNOZA ABDURASUL QIZI**

**ESHITISHIDA NUQSONI BOR O'SMIRLAR EMOTSIONAL-  
FRUSTRATSION HOLATLARI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK  
JIHATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по психологическим  
наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
psychological Sciences**

**Abduqahhorova Shahnoza Abdurasul qizi**

Eshitishida nuqsoni bor o'smirlar emotsional-frustratsion holatlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlari ..... 3

**Абдуқаххорова Шахноза Абдурасул кизи**

Психологические аспекты проявления эмоционально-фрустрационных состояний подростков с дефектами слуха ..... 25

**Abduqahhorova Shahnoza Abdurasul qizi**

Psychological aspects of expression of emotional-frustration states in adolescents with hearing impairments ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDUQAHHOROVA SHAHNOZA ABDURASUL QIZI**

**ESHITISHIDA NUQSONI BOR O'SMIRLAR EMOTSIONAL-  
FRUSTRATSION HOLATLARI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK  
JIHATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/P621 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tpdu.uz](http://www.tpdu.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.Ziynet.uz](http://www.Ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Juraev Bahrom**

psixologiya fanlari doktori, (DSc) dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna,**

psixologiya fanlari doktori, (DSc) professor

**Kasimova Xulkar Atabayevna**

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
(PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**F.A. Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, psixologiya fanlari doktori,  
professor

**N.B. Atabaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori,  
professor

**Z.T. Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi psixologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda o'smirlik yosh davri, ayniqsa, eshitishida nuqsoni bor o'smirlar muammosi dolzarb muammo bo'lib, alohida e'tibortalab masaladir. Chunki, o'smirlik yosh davrida shakllangan turli hulq-atvor ko'rinishlari geopolitik va ijtimoiy makon bo'lgan qit'a, mamlakat yoki oilalar rivojlanishi yo'ki tanazzuliga ta'sir etadi. Eshitishida nuqsoni bor o'smirlar sonining oshishi, ular voyaga yetayotgan oilalarda ota-ona-farzand munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, o'smirning shaxs xususiyatlari shakllanishi va uning jamiyatga moslashishi jarayonini qiyinlashtirib boradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha, imkoniyati cheklangan o'quvchi yoshlarning 94 % boshlang'ich ta'lim ma'lumotiga, 80% esa, umumiy o'rta ta'lim ma'lumotiga ega bo'lishlari aniqlangan<sup>1</sup>. Bu borada, eshitishida nuqsoni bor o'smirlar farzandini tarbiyalayotgan oilaga tibbiy, psixologik, pedagogik, ma'naviy va ijtimoiy himoya yordamlarini tashkil qilish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida eshitishida nuqsoni bor o'smirlar emotsional-frustratsion holatlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini aniqlash orqali ularga tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish, ularni kognitiv, emotsional, xulq-atvor buzilishlarini tiklash, ota-onalarini psixologik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, eshitishida nuqsoni bor o'smirlar emotsional-frustratsion holatlari sabablarini aniqlashtirish, o'quvchi emotsional sohasiga salbiy ta'sir etuvchi psixologik omillarni ilmiy tahlil qilish, ekstensiv, intensiv va proyektiv usullar orqali oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida ularga psixologik targ'ibot-tashviqot, tibbiy, rehabilitatsion choralarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda va mazkur muammo dolzarb sifatida psixologik tuzilmalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda psixologik xizmat sohasini rivojlantirish, ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishni yanada yuqori darajalarga olib chiqish, alohida yordamga muhtoj va nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi: «...mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, ularning uy-joy, maishiy va boshqa yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy va moddiy yordamni kengaytirish, ularni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish...»<sup>2</sup>, «...jamiyat hayotida ijtimoiy faol yoshlarning rolini yanada oshirish, zamonga yangicha nazar bilan qarashni shakllantirish»<sup>3</sup> vazifalari ustuvor etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 1 maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan

<sup>1</sup> European Center for Educational Statistics and Research Outlook 2021 (year-end report) 18 December, Dublin.

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 1 декабря 2017 года № УП-5270 “О мерах по кардинальному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с инвалидностью”. – <https://lex.uz/docs/3436196>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-5841063>

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022 yil 17 fevraldagi PF-74-son «Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida», 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlar, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 7-sentyabrdagi PQ-4440-son «Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanda takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorlar va sohaga oid boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora- tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston psixolog olimlaridan G'.B.Shoumarov, F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, Z.T.Nishanova, L.R.Muminova, G'.Z.Ikmatullayev, B.R.Qodirov, P.S.Ergashev, D.I.Ilxamova, Z.Sh.Sherimbetova, O.X.Rajabov, F.E.Gazieva, D.Y.Maxmudova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova va boshqalar tomonidan o'smir shaxsining rivojlanish xususiyatlari va oila munosabatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Pedagog olimlardan M.Y.Ayupova, Sh.M.Amirsaidova, U.Y.Fayziyeva, M.U.Hamidova, L.R.Mo'minova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuhamedova, M.P.Po'latova, V.S.Raxmonova, Sh.T.Shermuhamedova va boshqalar tomonidan eshitishida nuqsoni bor o'smirlarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.I.Arbusov, Y.Y.Alekseyeva, V.A.Ababkov, O.B.Bogdoshina, Y.R.Bayenskaya, V.M.Bashina, A.A.Bodolev, L.I.Bojovich, K.Gilbert, S.S.Galaskaya, L.Y.Gozman, Y.S.Grebelskaya, O.V.Gusayeva, S.N.Kashtanova, I.B.Karvasarskaya, M.M.Libling, K.S.Lebedinskaya, I.Y.Levchenko, S.S.Muxinin, V.N.Myasishev, I.I.Mamaychuk, O.S.Nikolskaya, L.S.Pechnikova, T.N.Piters, P.Y.Suxareva, Y.O.Smirnova, N.V.Simashkova, V.Satir, V.V.Tkachyova, T.N.Visotina, L.I.Vasserman, A.I.Zaxarov, E.G.Eydemiller va boshqalarning ilmiy izlanishlarida eshitishida nuqsoni bor o'smirlar va ularning rivojlanishidagi tibbiy-psixologik muammolari, rehabilitatsion tadbirlar ahamiyati masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan G.Asperger, F.Happe, E.Bleyler, B.Bettelxeym, Baron-Cohen, M.M.Bristol, L.Eyzenbergom, R.R.Fewell, C.Gillberg, K.Gilbert, S.Harris,

B.Hermelin, D.J.Meyer, D.T.Marsh, E.Schopler va boshqalarning tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bor o'smirlar va ularning tibbiy-psixologik muammolari va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy ishlar tadqiq etilgan.

Biroq, eshitishida nuqsoni bor o'smirlarning ta'lim sharoitlariga moslashuvi va unda yuzaga keluvchi emotsional-frustratsion xususiyatlarning sabab va oqibatlari kabi masalalar deyarli tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining XT-F2-025 «Pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'yicha psixologik-pedagogik diagnostika nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish» (2007–2011 y.y.) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini ochib berish hamda unga ta'sir etuvchi psixologik omillarni ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan maktablardagi eshitishida nuqsoni bor o'smirlar emotsional-frustratsion holatlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini sifatida asosiy konstruktlarini belgilash;

eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlar vujudga kelishini asoslash;

eshitishda nuqsoni bor o'smirlarda emotsional holatlar bilan frustratsion vaziyatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlash;

eshitishda nuqsoni bor o'smirlarda emotsional xususiyatlar shakllanishining sifatlari sifatida o'quv faoliyatida chidamlilik, emotsional-intellektual faollik, o'zini va atrofdagilarni tushunish shakllanganligini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti sifatida** imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan Qarshi, Samarqand va Toshkent shaharlaridagi maktablarda tahsil oluvchi eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'smir o'quvchilar tanlangan bo'lib, jami 265 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etilgan.

**Tadqiqot predmetini** eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlari namoyon bo'lishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari hamda ularga ta'sir etuvchi psixologik omillar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator metodika va so'rovnomalar tanlab olingan. Jumladan, Jeymsom Amirxon tomonidan ishlab chiqilgan "Koping-indikator" testi, L.I.Vassermannning "Ijtimoiy frustratsiya xususiyatlarini o'rganish" so'rovnomasi, D.V.Lyusinning "Emotsional intellekt" so'rovnomasi, S.Rozensveygning "Frustratsiya xususiyatlarini o'rganish" so'rovnomasi hamda G.S.Nikiforov tomonidan yaratilgan "Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish" so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi parametrik va noparametrik mezonlarni qo'llash orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

imkoniyati cheklangan maktablardagi eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlarini belgilashning asosiy konstruktleri natijasida, ularda emotsional yo'nalganligi, emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, noverbal muloqotda suhbatdoshning emotsional kechinmalarini prognoz qila olish, noverbal qobiliyati, o'zga insonlar kechinmalarini seza olish va o'zini nazorat qila olish qobiliyati isbotlangan;

eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda kuchsiz emotsional intellekt, o'zgalarni emotsional jihatdan tushuna olmaslik, shaxslararo munosabatlarning passivligi, muloqotda o'zini nazorat qila olmaslik, boshqalarning emotsional kechinmalarini noto'g'ri prognozlash, negativizm va antipatiya xususiyatlari shakllanishi natijasida, ularda emotsional-frustratsion xususiyatlar vujudga kelishi asoslangan;

eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional holatlar bilan frustratsion vaziyatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik aks etishi natijasida, ularda o'zi va o'zga insonlar kechinmalarini sezish, o'zi va boshlarning his-tuyg'ularini boshqara olish, hissiy empatiya, emotsional intellekt va tangli emotsional vaziyatlarda o'zini boshqarish kabi omillar quyilashgan sari, ularda emotsional xususiyatlar salbiy jihatdan, frustratsion vaziyatlar esa ijobiy jihatdan shakllanishi dalillangan;

eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional xususiyatlar shakllanishi natijasida, ularda zarur bo'lgan sifatlar ya'ni o'quv faoliyatga chidamlilik, emotsional-intellektual faollik, o'zini va atrofdagilarni tushunish, o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqalarning his-tuyg'ularini sezish, emotsional kechinmalarini boshqarish, emotsional vaziyatlarda hamda muloqot jarayonida o'zini nazorat qilish shakllanganligi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan respublika miqyosidagi maktablarda eshitishida nuqsoni bor o'smirlarning emotsional holatlari, frustratsion xususiyatlarini psixologik jihatdan o'rganishga doir test va so'rovnomalarni amaliyotda qo'llanilgan;

eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlarni belgilovchi: kuchsiz emotsional intellekt, o'zgalarni emotsional jihatdan tushuna olmaslik, shaxslararo munosabatlarning passivligi, muloqotda o'zini nazorat qila olmaslik, boshqalarning emotsional kechinmalarini noto'g'ri prognozlash, negativizm va antipatiya sifatlarini e'tiborga olish asosiy ahamiyat qaratiladigan mezonlardan biri ekanligi aniqlangan;

emotsional-frustratsion xususiyatlarni baholashga qaratilgan so'rovnomalarning psixotreninglarni qo'llashdan oldin va keyingi natijalari psixotreninglarni qo'llash orqali ijobiy o'zgarishlarga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** izlanish ob'yektlarining maqsadga mos tanlanganligi, respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, foydalanilgan metodikalarning validligi, qo'lga kiritilgan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy

elektron dasturiy vositalar qo'llanilgani, izlanishlar aniq va rejaviy bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya jarayonida amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy va amaliy xulosalar orqali kelgusida emotsional-frustratsion holatlarni baholashning psixologik omillarini o'rganishda, eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda yuzaga keladigan emotsional-frustratsion xususiyatlarni oldini olishga qaratilgan nazariy hamda amaliy ma'lumotlar bilan boyitilgan bo'lib, mazkur ma'lumotlar rivojlanish psixologiyasi, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik xizmat, maxsus psixologiya kabi sohaslarida qo'llash mumkin bo'lishining nazariy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan maktablar tizimi sohasida samarali o'quv faoliyatga tayyorlash amaliyoti hamda o'quv faoliyati uchun, o'quv faoliyatida adaptivlik va emotsional-frustratsion xususiyatlarning oldini olish jarayonida muhim omil sifatida o'rganish mumkinligi, imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan maktablar tizimida ta'lim olayotgan o'quvchilarning o'quv faoliyatida uchrayotgan turli emotsional-frustratsion holatlarni bartaraf qilishda samara berishi, ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan amaliyotchi psixologlar ish faoliyatini takomillashtirishda foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Eshitishida nuqsoni bor o'smirlar emotsional-frustratsion holatlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlarining o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan maktablardagi eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlarini belgilashning asosiy konstruktleri natijasida, ularda emotsional yo'nalganligi, emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, noverbal muloqotda suhbatdoshning emotsional kechinmalarini prognoz qila olish, noverbal qobiliyati, o'zga insonlar kechinmalarini seza olish va o'zini nazorat qila olish qobiliyati isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 15-iyundagi PM-145-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-iyundagi PM-145-a-son ma'lumotnomasi). Natijada imkoniyati cheklangan maktablardagi eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlari namoyon bo'lishining psixologik jihatlarini belgilashning asosiy konstruktleri aniqlashtirilgan;

eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda kuchsiz emotsional intellekt, o'zgalarni emotsional jihatdan tushuna olmaslik, shaxslararo munosabatlarning passivligi, muloqotda o'zini nazorat qila olmaslik, boshqalarning emotsional kechinmalarini noto'g'ri prognozlash, negativizm va antipatiya xususiyatlari shakllanishi natijasida, ularda emotsional-frustratsion xususiyatlar vujudga kelishi asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy

markazining 2024-yil 15-iyundagi PM-145-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-iyundagi PM-145-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada eshitishida nuqsoni bor o‘smirlarda emotsional-frustratsion holatlar vujudga kelishini asoslash imkoniyati yaratilgan;

eshitishida nuqsoni bor o‘smirlarda emotsional holatlar bilan frustratsion vaziyatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik aks etishi natijasida, ularda o‘zi va o‘zga insonlar kechinmalarini sezish, o‘zi va boshlarning his-tuyg‘ularini boshqara olish, hissiy empatiya, emotsional intellekt va tangli emotsional vaziyatlarda o‘zini boshqarish kabi omillar quyilashgan sari, ularda emotsional xususiyatlar salbiy jihatdan, frustratsion vaziyatlar esa ijobiy jihatdan shakllanishi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 15-iyundagi PM-145-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-iyundagi PM-145-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada eshitishda nuqsoni bor o‘smirlarda emotsional holatlar bilan frustratsion vaziyatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

eshitishida nuqsoni bor o‘smirlarda emotsional xususiyatlar shakllanishi natijasida, ularda zarur bo‘lgan sifatlar ya‘ni o‘quv faoliyatga chidamlilik, emotsional-intellektual faollik, o‘zini va atrofdagilarni tushunish, o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalarning his-tuyg‘ularini sezish, emotsional kechinmalarini boshqarish, emotsional vaziyatlarda hamda muloqot jarayonida o‘zini nazorat qilish shakllanganligi aniqlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 15-iyundagi PM-145-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-iyundagi PM-145-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada eshitishda nuqsoni bor o‘smirlarda emotsional xususiyatlar shakllanishi natijasida, ularda zarur bo‘lgan sifatlar, ya‘ni o‘quv faoliyatga chidamlilik, emotsional-intellektual faollik, o‘zini va atrofdagilarni tushunishning shakllanganligini aniqlash imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 166 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning metodlari, ob'ektlari va predmetlari aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Emotsional-frustratsion xususiyatlar muammosini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan bo'lib, unda emotsional-frustratsion xususiyatlar tushunchasining psixologik tabiati ta'rifi keltirilgan. Jumladan, emotsional-frustratsion xususiyatlarni o'rganishning psixologik ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan. Nazariy tahlil asosida eshitishda nuqsoni bor o'smir o'quvchilarda emotsional-frustratsion xususiyatlar namoyon bo'lishining psixologik determinantlari tahlil etilgan.

Hozirga qadar, shaxsning emotsional sohasi va uning fenomenologik tabiatiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq xali - hanuz uni keltirib chiqaruvchi sabablar shuningdek, tashqi ta'sirlarga bo'lgan insonning psixik imkoniyati, emotsional-frustratsion xususiyatlar va uning inson faoliyatiga ta'siri, muarakab sharoitlarda insonning vazifalarni hal qila olish imkoniyati, ta'lim va mehnat sharoitlarida emotsional barqarorlikning roli kabi masalalar, ko'plab psixolog mutaxassislarning diqqat markazida bo'lib kelayotgan aktual masalalar sifatida qayd etilmoqda.

V.S.Agavelyanning so'zlariga ko'ra, emotsional-frustratsion holatlar qachonki, inson o'zining foydasizligini his qilganda yoki qiyin hayotiy vaziyatlar oldida ojizligini tushunib yetganda sodir bo'ladi. Shuning uchun, ushbu tushuncha ko'plab tadqiqotlarda nafaqat psixik, balki fiziologik holatlarning mazmuniga ham murojaat qilish uchun kengroq ishlatiladi. Ya'ni, inson tanasining tashqi ko'rinishi yoki organizmning murakkab vaziyatlardagi holatiga baho berish uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari, ko'plab psixologik adabiyotlarda “emotsional-frustratsion xususiyatlar” tushunchasini tavsiflashga oid turli ta'riflarni uchratish mumkin. Masalan, V.K. Vilyunasning “Emotsional holatlarning namoyon bo'lishi” nomli kitobida ta'riflanishicha, emotsional-frustratsion holatlar bu – lotinchada silkitish, qo'zg'atish ma'nolarini anglatib, unda hissiyotlar va tajribalar intensivligi kuchayadi va oxir-oqibat ichki yoki tashqi muammolarga nisbatan reaksiya sifatida, yangicha psixik holatlar paydo bo'ladi. Mazkur ta'rifga muvofiq, emotsional-frustratsion xususiyatlar ob'ektiv yoki oddiy sharoitlarda yuzaga kelmaydi balki, ziddiyatlarning rivojlanishi bilan, ayniqsa uning kuchayishi bosqichida u tez namoyon bo'ladi. Bunday holat organizmda ichki tahdidning kuchayishi, ongli faoliyatni nazorat qilish

qobiliyatining pasayishi, o'z imkoniyatlarini kerakli darajada amalga oshira olmaslik hamda muammolarga tez taslim bo'lish kabilar bilan xarakterlanadi.


Ba'zi ilmiy manbalarda emotsional-frustratsion xususiyatlar ijobiy va salbiy jihatlari borasida ham, o'ziga xos qarashlar aks etgan. Ye.R.Isaevaning ta'kidicha, ko'plab vaziyatlarda emotsional-frustratsion xususiyatlar samarali, funksional foydali mazmunda bo'lsa, ayrim holatlarda u samarasiz, disfunksiyali, insonga salbiy ta'sir etuvchi holat sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ham, ko'pchilik murakkab vaziyatlarda inson bardoshli bo'la olmaydi yoki boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olmaydi. Ma'lumki, emotsional kechinmalar inson hayoti va faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etib, ular orasida frustratsiya holati o'ziga xos murakkab kechinma sanaladi. Frustratsiya turli hayotiy qiyinchiliklar va ekstremal vaziyatlarga nisbatan hayotiy maqsadlarning o'zgarishi sanalib, u orqali insonning qaror qabul qilish, his-tuyg'ularni boshqara olish ko'nikmalari aniqlanadi. Shunday ekan, avvalo frustratsiya fenomenining psixologik tabiati hamda uning mazmun-mohiyatini aniqlab olish maqsadga muvofiq sanaladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlarni tahlil etishning metodologik jabhalari”**ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlarni tadqiq etishning konseptual jihatlari, eshitishda nuqsoni bor o'smirlarda emotsional-frustratsion holatlarning individual-psixologik omillari va tadqiqotni tashkil etishning psixodiagnostik tuzilmasi ochib berilgan.

Umuman olganda, emotsional-frustratsion soha shakllanishining psixologik o'ziga xosliklari borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda o'rganish ob'ekti sifatida maktabgacha yoshdagi bolalar, katta maktab yoshi o'quvchilari, o'smirlik davri, o'spiriklik davri kabi yosh bosqichlarini uchratish mumkin. Demak, atrof-muhit bilan hissiy aloqada bo'lish, boshqalarning yuz qiyofalari va mimikalarini anglash hissiy soha rivojlanishining ilk belgilaridan biri sanalib, bunda erta bolalikka xos hissiy tajribaning yuzaga kelishi nazarda tutiladi.

Emotsional-frustratsion holatlar irodaviy boshqaruv mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'smirlik davrida ham mazkur ikki soha o'zgarishlari boshqa yosh ko'rsatkichlaridan farqli o'laroq, ancha keskin kechishi bilan xarakterlanadi. Chunki, insonning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi va o'zini o'zi mustaqil boshqarishi affektiv-irodaviy soha tomonidan ta'minlanadi. Bu shaxsning kuchini, psixik muvozanatini va hissiy-ixtiyoriy nazorat qilish qobiliyatini ifodalovchi psixoemotsional salohiyati sanaladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator metodika va so'rovnomalar tanlab olingan. Jumladan, Jeymsom Amirxon tomonidan ishlab chiqilgan “Koping-indikator” testi, L.I.Vassermannning “Ijtimoiy frustratsiya xususiyatlarini o'rganish” so'rovnomasi, D.V.Lyusinning “Emotsional intellekt” so'rovnomasi, S.Rozensveygning “Frustratsiya xususiyatlarini o'rganish” so'rovnomasi hamda G.S.Nikiforov tomonidan yaratilgan “Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish” so'rovnomalaridan foydalanilgan. Mazkur metodikalar sinaluvchi haqida qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Shuningdek, tahliliy ma'lumotlarni parametrik va noparametrik mezonlar orqali ham o'lchashga harakat qildik.




**1-rasm. Frustratsiya va ijtimoiy frustratsiya darajalarini aniqlash so'rovnomasi natijalari**

Frustratsion holatlarni aniqlash so'rovnomasiga ko'ra sinaluvchilarning natijalari frustratsiya shkalasi bo'yicha quyi daraja 35%, o'rta 37% va yuqori 28%ni tashkil etgan.

Ekstrapunitiv frustratsiya shkalasi bo'yicha quyi farq 40%, o'rta 26% va yuqori daraja 30% bilan namoyon bo'lgan. Frustratsion vaziyatlarga munosabatni shaxs tiplari orqali tushuntirishga harakat qiladilar. Ya'ni kutilmagan holatlarda stenik (kuchli, bardoshli) va astenik (zaif, kuchsiz) shaxslarning reaksiyalari turlicha bo'lib, stenik tipdagi shaxs munosabati, avvalo, agressiya bilan ifodalanadi.

Intrapunitiv frustratsiya shkalasiga ko'ra quyi 38%, o'rta 29% va yuqori 33% ni tashkil etgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, frustratsiya har doim ham agressiyaga olib kelmasligi haqidagi qarashlar ba'zi tadqiqotlar mazmunida o'z aksini topgan.

Impunitiv frustratsiya shkalasiga ko'ra quyi farq 34%, o'rta 40% va yuqori 26%ni tashkil qilgan. Tadqiqotchi A.Y.Drozdo'vning aytishicha, frustratsiya agressiyaga yordam beradi, lekin bu har doim ham sodir bo'lmaydi, agressiv xatti-harakatlar faqat agressiya uchun tegishli bo'lgan sabablar ya'ni g'azab va nafratni keltirib chiqaradigan muhit bo'lgandagina paydo bo'ladi. Umuman olganda, muayyan sharoitlarda odamlar ham, jismoniy ob'ektlar ham agressiya paydo etuvchi sababchilar rolini o'ynashi mumkin.



**2-rasm. Emotsional intellektni aniqlash so'rovnomasi natijalari**


Emotsional intellektni aniqlashga qaratilgan so'rovnoma bo'yicha eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'smir o'quvchilardan olingan natijalar birinchi shkala o'z his-tuyg'ularini anglash bo'yicha quyi nisbatda 30%, o'rta darajada 32% va yuqori darajada 38%ni namoyon qilgan.

O'z his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi bo'yicha quyi farq 24%, o'rta 40% va yuqori 36%ni aks ettirgan. Boshqalarning his-tuyg'ularini anglash shkalasi bo'yicha quyi natija 28%, o'rta 35% va yuqori 37%ni namoyon qilgan. Shaxsning emotsional-frustratsion sohasining shakllanishi bir qator tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga keladigan, murakkab jarayondir.

Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi bo'yicha quyi farq 46%, o'rta 30% va yuqori 24% bilan farqlangan. Emotsional-frustratsion muammo bugungi kunda juda dolzarb masala bo'lib, uning asosi hissiy tajriba orttirish va tarbiyadir. Emotsional-frustratsion sohani shakllantirish jarayonida kognitiv faoliyatdagi barcha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati shkalasi bo'yicha farq quyi 28%, o'rta 30% va yuqori 42%ni qayd etgan. Emotsional intellektning shaxslararo jihati shkalasi bo'yicha quyi farq 40%, o'rta darajani 32% va yuqori darajani 28% bilan namoyon qilib alohida xarakterlangan.

Emotsional intellektning integral ko'rsatkichi shkalasiga ko'ra, quyi farq 27%, o'rta darajani 34% va yuqori darajani 39% bilan namoyon bo'lgan. Emotsional-frustratsion xususiyatlar irodaning tarbiya jarayonida shakllanadigan axloqiy

komponentlarini va asab tizimining tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan irsiy komponentlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan, qo‘rquv, charchoqqa uzoq vaqt bardosh bera olmaslik, tez qaror qabul qilish ko‘p jihatdan insonning tug‘ma xususiyatlariga (asab tizimining kuchli va zaifligi, uning labilligi) bog‘liq.



**3-rasm. Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilishni aniqlash so‘rovnoma natijalari**

Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilishni aniqlashga mo‘ljallangan so‘rovnoma bo‘yicha birinchi shkala, ya‘ni “emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish” bo‘yicha quyi nisbatda 27%, o‘rta darajada 35% va yuqori darajada 38%ni namoyon qilgan.

Muloqotda o‘zini nazorat qilish shkalasi bo‘yicha quyi farq 45%, o‘rta 37% va yuqori 18%ni aks ettirgan. Yaqinlar bolaga mehr bilan munosabatda bo‘lsa, uning huquqlarini tan olishsa, unga e‘tibor berishsa, anashundagina bola o‘zida “hissiy farovonlik”ni his qiladi. Odatda, bunday sharoitda bolada quvnoq, kayfiyat yoki ijobiy hissiy fon hukmronlik qiladi. Ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilish shkalasi bo‘yicha quyi natija 29%, o‘rta 32% va yuqori 39%ni namoyon qilgan.

**“Eshitishida nuqsoni bor o‘smirlarda emotsional-frustratsion holatlarni o‘rganishning amaliy imkoniyatlari”** deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobi tadqiqotdan olingan natijalarning birlamchi amaliy natijalari, emotsional va frustratsion holatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar hamda emotsional-frustratsion holatlarni belgilovchi psixologik jihatlarni aniqlashdan iborat.

1-jadval.

**Emotsional intellekt, emotsional holatlar, o'zini nazorat qilish va frustratsiya o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar, K.Pirson r-korrelyatsiya mezonini bo'yicha**

Shkalalar	Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish	Muloqotda o'zini nazorat qilish	Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish	Ijtimoiy frustratsiya	Ekstrapunitiv frustratsiya	Intrapunitiv frustratsiya	Impunitiv frustratsiya
O'z his-tuyg'ularini anglash	0,235	0,676**	0,558**	-0,270	0,430*	0,557**	-0,676**
O'z his-tuyg'ularini boshqarish	-0,476*	0,559**	0,476*	0,696**	0,159	0,593**	0,250
Boshqalar his-tuyg'ularini anglash	0,489*	-0,268	0,443*	0,574**	0,187	0,540**	0,473*
Boshqalar his-tuyg'ularini boshqarish	-0,472*	0,465*	-0,598**	0,278	0,439*	0,423*	0,686**
Emotsional intellekt ichki jihati	0,478*	0,546**	-0,467*	0,580**	-0,596**	0,573**	0,242
Emotsional intellekt shaxslararo jihati	-0,456*	0,426*	0,469*	-0,295	-0,435*	0,546**	0,454*
Emotsional intellekt integral ko'rsatkichi	0,589**	0,244	0,590**	0,455*	0,167	-0,639**	0,724**

Izoh: \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ ; \*\*\* –  $p \leq 0,001$ .

Emotsional intellekt, emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish va frustratsiya so'rovnomalarining o'zaro aloqasi natijasiga ko'ra, "o'z his-tuyg'ularini anglash shkalasi - muloqotda o'zini nazorat qilish, ijtimoiylashuvda nazorat qilish, ekstrapunitiv frustratsiya, intrapunitiv frustratsiya va impunitiv frustratsiya shkalalari bilan, o'z his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi - emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, muloqotda o'zini nazorat qilish, ijtimoiylashuvda nazorat qilish, ijtimoiy frustratsiya va intrapunitiv frustratsiya shkalalari bilan, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash shkalasi - emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, ijtimoiylashuvda nazorat qilish, ijtimoiy frustratsiya, intrapunitiv frustratsiya va impunitiv frustratsiya shkalalari bilan, boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi - emotsional holatlarda o'zini

nazorat qilish, muloqotda o'zini nazorat qilish, ijtimoiylashuvda nazorat qilish, ekstrapunitiv frustratsiya, intrapunitiv frustratsiya va impunitiv frustratsiya shkalalari bilan, emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati shkalasi - emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, muloqotda o'zini nazorat qilish, ijtimoiylashuvda nazorat qilish, ijtimoiy frustratsiya, ekstrapunitiv frustratsiya, intrapunitiv frustratsiya shkalalari bilan, emotsional intellektning shaxslararo jihati shkalasi - emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, muloqotda o'zini nazorat qilish, ijtimoiylashuvda nazorat qilish, ekstrapunitiv frustratsiya, intrapunitiv frustratsiya va impunitiv frustratsiya shkalalari bilan, emotsional intellektning integral ko'rsatkichi shkalasi - emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, ijtimoiylashuvda nazorat qilish, ijtimoiy frustratsiya, intrapunitiv frustratsiya va impunitiv frustratsiya kabi shkalalar bilan o'zaro aloqaga kirishgan.

## 2-jadval.

### Emotsional intellekt va koping-indikator sifatlar so'rovnomalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar, K.Pirsonning r-korrelyatsiya mezonini bo'yicha

Shkalalar	Muammoni yechish	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish	Muammodan qochish	Samimiylik (tanqidiy tafakkur)
O'z his-tuyg'ularini anglash	0,457*	0,578**	-0,240	0,589**
O'z his-tuyg'ularini boshqarish	0,489*	-0,467*	0,235	0,476*
Boshqalar his-tuyg'ularini anglash	0,140	0,426*	0,530**	0,547**
Boshqalar his-tuyg'ularini boshqarish	0,138	0,477*	0,240	0,575**
Emotsional intellekt ichki jihati	0,472*	0,160	-0,245	0,473*
Emotsional intellekt shaxslararo jihati	0,590**	0,297	-0,586**	0,557**
Emotsional intellekt integral ko'rsatkichi	0,224	0,434*	0,579**	0,445*

Izoh: \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ ; \*\*\* –  $p \leq 0,001$ .

Emotsional intellekt va koping-indikator sifatlar so'rovnomalarining o'zaro aloqasini o'rganishga qaratilgan natijalarga ko'ra, o'z his-tuyg'ularini anglash shkalasi - muammoni yechish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish va samimiylik (tanqidiy tafakkur) shkalalari bilan, o'z his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi muammoni yechish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish va samimiylik (tanqidiy tafakkur) shkalalari bilan, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash shkalasi - ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish, muammodan qochish va samimiylik (tanqidiy tafakkur) shkalalari bilan, boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi - ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni

qidirish va samimiylik (tanqidiy tafakkur) shkalalari bilan, emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati shkalasi - muammoni yechish va samimiylik (tanqidiy tafakkur) shkalalari bilan, emotsional intellektning shaxslararo jihati shkalasi - muammoni yechish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish va samimiylik (tanqidiy tafakkur) shkalalari bilan, emotsional intellektning integral ko'rsatkichi shkalasi - ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish, muammodan qochish va samimiylik (tanqidiy tafakkur) kabi shkalalar bilan o'zaro musbat va manfiy aloqaga kirishgan.

### 3-jadval.

#### Koping-indikator so'rovnomasi natijalari, Kraskal-Uollis mezoniga ko'ra

Shkalalar	O'smirlar			H	P
	Qarshi maktabi	Samarqand maktabi	Toshkent maktabi		
Muammoni yechish	85,56	66,43	74,38	23,36	0,003**
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	55,64	68,27	62,45	15,54	0,005*
Muammodan qochish	57,15	74,83	69,41	18,39	0,004*
Samimiylik	78,39	72,12	83,79	22,92	0,09

Izoh: \* –  $p \leq 0,05$ ; \*\* –  $p \leq 0,01$ ; \*\*\* –  $p \leq 0,001$ .

